



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA
ILMIY-METODIK MARKAZI

ODOB VA ETIKET SABOQLARI



Bolalar uchun odob-axloq va etika qoidalari

— bu sehrli qoidalar bo'lib, ular seni tarbiyali, odobli va do'stona inson bo'lishingga yordam beradi.

Bu qoidalarni bilgan holda, sen do'stlaring, ota-onang, yaqinlaring va hatto begona insonlar bilan ham oson va erkin muloqot qila olasan.



MAQSAD.

- O'quvchilarga kundalik hayotda va jamoat joylarida amal qilinadigan odob-axloq va etiket qoidalari haqida tushuncha berish.
- Xushmuomalalik, hurmat, diqqat bilan tinglash kabi muhim ko'nikmalarni shakllantirish.
- Amaliy mashqlar orqali odobli muomala qilishni odatga aylantirish.



Vazifalari:

1. Odob va etiket tushunchalarini izohlash.
2. Turli vaziyatlarda amal qilinadigan asosiy etiket qoidalarini o'rgatish.
3. Amaliy mashqlar orqali o'quvchilarda xulqiy odatlarni mustahkamlash.



Etiket

Bu odamlarning bir-biri bilan qanday madaniyatli va to'g'ri munosabatda bo'lishi kerakligini ko'rsatib beruvchi qoidalar to'plamidir. Etiket deganda biz salomlashish, xayrlashish, suhbatdosh, diqqat bilan tinglash, boshqalarga hurmat bilan muomala qilish, navbat kutish, toza va ozoda yurish kabi odob-axloq qoidalarini tushunamiz.



MEHMONDORCHILIK ETIKETI

Bu mehmon kutib olish yoki o'zi mehmon bo'lib borishda amal qilinadigan xulq-atvor qoidalaridir.



ASOSIY QOIDALAR:

Belgilangan vaqtda kelish, ortiqcha vaqt qolib ketmaslik.

Uy egalariga kichik sovg'a olib kelish (agar bu odat tusiga kirgan bo'lsa).

Uy egasi va boshqa mehmonlar bilan xushmuomalalik bilan muloqot qilish.

Taklif etilgan taom yoki ichimlikni qo'pol tarzda rad etmaslik.

Uydan chiqishda uy egalariga albatta minnatdorchilik bildirish.



**«ODOB VA ETIKET — BU FAQAT QOIDALAR
EMAS. BU BIZNING YUZIMIZ, QALBIMIZ VA
ODAMLAR ORASIDAGI KO‘PRIKDIR. HAR KUNI
KICKINA ODOBLI QADAM TASHLASAK,
ATROFIMIZDAGI DUNYO CHIROYLIROQ
BO‘LADI.»**

